

Mavzu: Gapning tuzilishiga ko'ra turlari (sodda gap)



Tayyor mahsulotlar dōkonlarda sotiladi.

do'kon



Do'kon arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida savdo-sotiq joyi ma'nosidan tashqari hunarmandlar ishxonasi va ular ishlatadigan dastgoh ma'nolarida ham qo'llanadi.



1-mashq. O'qing. Sodda yig'iq va sodda yoyiq gaplarni aniqlang.

1. Gulchehra sochlarini o'rdi.⁴
2. Ukam kiyindi.
3. Singlim idishlarni yuvdi.
4. Bug'doy pishdi.



Sodda gaplar eganing ishtirok etish va ishtirok etmasligiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Egasi mavjud gaplar:

Masalan: Sardor yangi uyga ko'chdi.

2. Ega ishtirok etmagan (egasiz) gaplar:

Masalan: Yangi uyga ko'chdi.

Egasiz gaplarda kesim orqali so'roq berilib, gapning egasi aniqlanadi.

Masalan: Kim ko'chdi? Sardor ko'chdi.



2-mashq. Gaplarning tuzilishiga ko'ra farqini aniqlang.

Chiroyli ko'za yasadi.

Kulol chiroyli ko'za yasadi.

Vazirni saroyga chaqirdi.

Podshoh vazirni saroyga chaqirdi.

- Gaplarning bosh bo'laklarini aniqlab, ko'chiring.



3-mashq. So'roqlar yordamida gaplarning egasini aniqlang.

Namuna: Opasi bilan xolasinikiga bordi. (Kim bordi?)
Botir opasi bilan xolasinikiga bordi.

1. Opasi bilan xolasinikiga bordi.
2. Mazali ovqat pishirdi.
3. Maktabga boraman.
4. Eshikni sekin yopib, chiqib ketdi.
5. Tongda eshikni qoqdi.

Foydalanish uchun so'zlar: Botir, men, bola, kampir, oshpaz.

- Egali gaplarni yozing.
- Gapning bosh bo'laklarini belgilang.



4-mashq. Matnni o'qing. Egali va egasiz gaplarni aniqlang.

Ta'tilda qishloqqa bordim. Qishloqda bobom yashaydi. Bobom juda ko'p mehnat qiladi. Bog'dagi daraxtlar va gullarni parvarishlaydi. Bugun qayiqda daryodan baliq tutdi. Baliq tutish sirlarini menga ham o'rgatdi.

Qishloqda ko'plab yangi do'stlar orttirdim. Do'stlarim bilan ta'til juda maroqli o'tdi.

- Gapning bosh bo'laklarini belgilab, matnni ko'chiring.

